**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«DAK» ga taqdim etaman Tabiiy fanlar fakul'teti dekani:**
**_______ dots. V.Azizov**
**"____ " _______2012 yil**

## TABIIY FANLAR FAKUL'TETI

**5440500-Geografiya kundizgi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavriat bosqichi bitiruvchisi**

**Axmedov Vali Avdoaxatovichning**

« Ekologik murakkab hududlarni qishloq ho'jaligini rivojlantirish muammolari (Namangan viloyati misolida)» **mavzuidagi**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar :** **g.f.n. dots. A.Baratov**

**Namangan – 2012**

БМИдан Namangan viloyati iqtisodiyot bosh boshqarmasi viloyat qishloq xo’jaligini istiqbolli rejalashtirish va xududiy tashkil qilishni takomillashtirish, muammo va istiqbolini belgilashda foydalanish mumkin shuningdek BMI materiallaridan kasb-xunar kollejlarida iqtisodiyot fanlarini o’qitishda qo’shimcha material sifatida ham foydalanish mumkin.

# M U N D A R I J A

**Kirish……………………………………………………………………….3**

**I.Bob. QISHLOQ XO’JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI……………………………..7**

1.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo’jaligini rivojlanish xususiyatlari……………………………………………………………7

1.2. Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishning xuquqiy-me’yoriy asoslari…………………………………………………………………….11

1.3. Namangan viloyatida qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishining iqtisodiy-geografik taxlili………………………………………………18

**II.Ekologik murakkab hudud - Namangan viloyati qishloq xo’jaligini rivojlanishi muommolari……………………………………………………..24**

2.2 Namangan viloyatida qishloq xo’jaligida yerlarning meliorativ xoati va uni yaxshilashga qaratigan chora-tadbirar……………………………………….24

2.2Namangan viloyatida qishloq xo’jaligida yerlarning meliorativ xoati va uni yaxshilashga qaratigan chora-tadbirar……………………………………….31

2.3 Istiqbolda Namangan viloyati yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari…………………………………………………………….40

**Xulosalar…………………………..…………………………..………….55**

**Foydalanilgan adabiyotlar……………………..…………………………..57**

**Ilovalar…………………………………………………..…………………...60**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda olib borilgan iqtisodiy islohotlar negizida yer resurslaridan samarali foydalanish va muammolarini bozor mexanizmlari asosida tartiblashda muhim ijobiy ishlar amalga oshirildi... Qishloq xo'jaligidagi muhim vazifalardan biri-sug'orib kelinayotgan yerlarda suv ta'minotini yaxshilash, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini samarali faoliyatini tashkil etishdan iborat.

Respublikamizda sug'oriladigan yerlardan olinadigan maxsulotlar umumiy qishloq xo'jaligidan olinadigan maxsulotlarning 95% ni tashkil etadi. SHuning uchun sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish ularni unumdorligini oshirib borish, har-bir gektar yerdan kafolatlangan yuuqori sifatli arzon maxsulot olishni taqqozo qiladi. Bu muammolarni xal qilishda yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash juda muxim ahamiyatga ega. CHunki Respublikamizda sug'oriladigan yerlarning 55-60% sho'rlangan va botqoqlangan, 50% eroziyalangan, 10-12% gipcli, karbonatli tuproqlardan iborat. SHu bilan birga sug'oriladigan yerlar tarkibida juda unumsiz qum va qumloq, toshloq, shag'al tuproqlar ham keng tarqalgan. Yuuqorida ko'rsatib o'tilgan yerlardan sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish o'ziga xos muommolarni vujudga keltirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar muoffaqiyati ko'p jixatdan tumanlardagi fermer xo'jaliklarining faoliyati bilan bog'liq. Mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatni qurishda qishloq xo'jaligining samarali vajadal rivojlanishi,qishloqdagi iqtisodiy va ijtimoiy muommolarni hal etishi o'ta muxim axamiyatga aylandi. Ko'rinib turibdiki, respublikamizning barqaror rivojlanib borishi va ahali sonining ortishi, qishloq xo'jaligi korxonalari maxsulotlarini ko'paytirishga bo'lgan obьktiv zaruriyatni kun tartibiga qo'ymoqda. Qishloq xo'jaligik maxsulotlarini doimo ko'paytirib borish esa mavjud agroresuslardan, birinchi navbatda yer-suv resurslaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Ayni paytda biz qishloq xo'jaligi sohasida birinchi navbatda tuproq unumdorligini oshirish choralarini ko'rish, barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, seleksiya va urug'chilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish bilan bog'liq, hali-beri ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ham e'tirof etishimiz zarur[1]. Amalga oshirilgan iqtisodiy isloxotlar qishloq joylarda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mexnat kooperatsiyasining yangi shakllari, yangicha xo'jalik munosabatlari tizimi qaror topmoqda. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi chuqur o'zgarishlarni hamda rivojlanish istiqbollarini tatqiq qilish g'oyat ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan shunday sharoitda mavjud Ekalogik murakkab xududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish muommolari iqtisodiy-geografik jihatdan o'rganish va yechimlarini ishlab chiqish zaruriyati mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini milliy iqtisodiyotda to'tgan o'rni, uni tashkil qilish, rivojlanish xususiyatlari va istiqbolini belgilash masalalari bilan xorijlik iqtisodiy-geografik yo'nalishlardagi ishlanmalarda Z.M.Akramov, O.Abdullaev, SH.Azimov va boshq., iqtisodiy-ijtimoiy yo'nalish A.N.Mamedov, N.J.Jabbarov, A.G'ofurov, R.A.Abdullaxanov, R.Xusanov, O.Olimjonov, Yu.Dodaboev, R.Haqimov, S.N.Usmonov, S.Xoliqulov, A.Muxamedov, A.Toshmatov, G.Saidjonov, U.Neg'matjanov, A.Baratov va boshqalar, Melioratsiya fanining rivojlanishiga A. N. Kostyakov, L. P. Rozov, V.

---

[1] 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga baғishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi mahruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvarg',№14

D. Jurin, V. A. Kovda, V. S. Maligin, N. A. Besednov, N. F. Bespalov, A. S. Robochiev, F. Raximboev, Q. Mirzajanov, X. Axmedov va boshqa Respublikamizning boshqa tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari, asarlari va maqolalarida yoritilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Isloxotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirsh sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini xududiy tashkil qilishni takomillashtirish va rivojlanish istiqboli o'rganish asosida ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifasi.** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan xolda quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloxotlarni chuqurlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganish;
- Ekalogik murakkab xududlar xisoblangan Namangan viloyati sug'riladigan maydonlarnig ekalogik muommolarni taxlil qilish;
- Tuproq sho'rlanishi, yer osti suvlvrining dinamikasi va migratsiyasini tadqiq qilish
- Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning xuquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganish;
- Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishining retrospektiv taxlilini qilish;
- Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida dexqonchilik maxsulotlari ishlab chiqarishni o'rganish;
- Namangan viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanish muammolarini tadqiq qilish;
- Namangan viloyati qishloq xo'jaligi rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obьekti va predmeti.** Namangan viloyati qishloq xo'jaligi da sug'oriladigan yerlarning meliorotiv xolati va ishlab chiqarishini xududiy tashkil qilish hamda rivojlanish istiqbollarini o'rganish tadqiqot ob'ekti xisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollarini o'rganish tadqiqot predmeti xisoblanadi.

**Ishning metodologik asoslari va tadqiqot usullari**. Mazkur bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishga oid qonun xujjatlari, mamlakatmiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish tamoyillari, Prezident asarlarida ilgari surilgan g'oyalar hamda mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qonuniyat va tamoyillar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi yozish jarayonida iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy fikrlash, statistik maьlumotlar tahlili, xaritalash, bashoratlash va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalaridan Namangan viloyati iqtisodiyot bosh boshqarmasi viloyat qishloq xo'jaligini istiqbolli rejalashtirish va xududiy tashkil qilishni takomillashtirish, muammo va istiqbolini belgilashda foydalanish mumkin.

SHuningdek, BMI materiallaridan kasb-xunar kollejlarida iqtisodiyot fanlarini o'qitishda qo'shimcha material sifatida ham foydalanish mumkin.

**BMIning tuzilishi va xajmi** BMI kirish, ikkita bob, 1-karta 7-ta jadval, 37 foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va xulosa iborat.

## I.Bob. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

### 1.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlanish xususiyatlari

Jahon mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning asosiy manbai qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bugungi kunda dunyo aholisi is'temol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining 10 foizi dengiz, okean va o'rmon xo'jaliklariga to'g'ri kelgani holda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hissasiga 90 foizi to'g'ri keladi.

Insoniyat taraqqiyotida aholi sonining ortib borishi doimiy ravishda oziq-ovqat muammosini kun tartibiga qo'ygan. XX asrning 50-yillariga qadar barcha mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga, ya'ni ekstensiv usullarda rivojlantirishga asosiy e'tibor berilgan. Bugungi kunda esa deyarli barcha mamlakatlarda haydaladigan yerlarning qisqarishi, lalmikor yerlar, yaylovlar va o'tloqlarning ekologik holatini yomonlashuvi, tuproq eroziyasi va sho'rlanish oqibatida yer tabiiy unumdorligining keskin pasayishi jiddiy geoiqtisodiy muammoga aylandi. SHahar va qishloqlarning «eniga» kengayishi, sanoat, ishlab chiqarish infratuzilmalari va boshqa xizmatlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda yer-suv taqchilligi kuchayib, asosan unumdor yerlar kamaygan.

Bu haqda gapirganda, avvalo, murakkab ob-havo va iqlim sharoiti tufayli vujudga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan, qishloq mehnatkashlarining fidokorona mehnati hisobidan 2011-yili eng muhim qishloq xo'jalik mahsulotlari davlat xaridi bo'yicha shartnoma majburiyatlari nafaqat bajarilgani, balki ortig'i bilan bajarilganini ta'kidlash o'rinlidir.[2]

2011 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 17,1 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. SHu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. CHeklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda.O'tgan 2005-2011 yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik barqaror o'sish sur'atlari dinamikasig ta'minlandi. Xususan, bu ko'rsatkich 2005 yilda 105,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 106,6 foizga teng bo'ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti salmog'ining 2005 yildagi 26,3 foizdan 2011 yilda 17,1 foizga pasayishi ijobiy holdir. Bu avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi.



Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaigining ulushi foizda
Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining o'rtacha yillik o'sish surati foizda

**Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, (foizda)berilgan.**

Yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini, urug'chilik-selektsiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Buning samarasi o'laroq, 1990-2011 yillarda don yetishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobar, uzum 1,3 barobardan ziyod, go'sht (tirik vaznda) 1,9 barobarga, sut 2 barobardan va tuxum 2,4 barobardan ko'proq oshganligi fikrimizning dalilidir.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish hisobidan ta'minlanmoqda.




**O'zbekistonda asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining o'zgarish dinamikasi, tsentner hisobidan berilgan.**

Ko'rinib turibdiki, o'tgan 20 yildan ortiqroq davr mobaynida asosiy turdagi ekinlarning hosildorligi muttasil o'sib borish sur'atiga ega bo'lgan. Xususan, 2010 yilda 1990 yilga nisbatan paxta hosildorligi gektariga 22,6 tsentnerdan 25,6 tsentnerga yoki 113,3 foizga, donli ekinlar hosildorligi 20,2 tsentnerdan 44,2 tsentnerga yoki 218,8 foizga, kartoshka hosildorligi 80 tsentnerdan 194,9 tsentnerga yoki 243,6 foizga, sabzavot hosildorligi 192,0 tsentnerdan 252,5

tsentnerga yoki 131,5 foiz ga va poliz hosildorligi 115 tsentnerdan 192,6 tsentnerga yoki 167,5 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 1990 yilda respublikamiz aholisi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat masulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobidan aholining asosiy iste'mol ma'sulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli yuz foiz o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda. Jumladan, agar 1991 yilda aholi jon boshiga nisbatan 24,0 kg. meva, 24,0 kg. uzum, 138,6 kg. sabzavot, 15,1 kg kartoshka va 39,0 kg. poliz mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib aholi jon boshiga 60,1 kg meva (250,4 foiz), 35,1 kg. uzum (146,2 foiz), 225 kg. sabzavot (162,3 foiz), 60,5 kg kartoshka (400,6 foiz) va 42,0 kg. poliz mahsulotlari (107,6 foiz) yetishtirildi.

**1-jadval**

**O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg**

| Mahsulotlar turi | 1991 yil | 2011 yil | 2011 yil 1991 yilga nisbatan, foiz da |
|---|---|---|---|
| Meva | 24,0 | 60,1 | 250,4 |
| Uzum | 24,0 | 35,1 | 146,2 |
| Sabzavot | 138,6 | 225,0 | 162,3 |
| Kartoshka | 15,1 | 60,5 | 400,6 |
| Poliz | 39,0 | 42,0 | 107,6 |

**Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi maьlumotlari asosida tuzilgan**

Mustaqillik yillarida agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil islohotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, 2011 yilda 1991 yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 31 kg.dan 38 kilogramm yoki 122,6 foizga, sut mahsulotlari 183 kilogrammdan 239 kilogrammga yoki 130,3 foizga, tuxum 97 donadan 138 donaga yoki 142,3 foizga oshgan.

## 1.2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishning me'yoriy-xuquqiy asoslari

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarida qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berilmoqda. Bu qishloq xo'jaligi hamda qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlarning respublikamiz bugungi iqtisodiyotidagi roli bilan bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish esa, o'z navbatida, sanoat salohiyatini saqlab qolish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlarda ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini berdi. Aynan, agrar sektor O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikning qudratli omili bo'lib kelgan va bo'lib qolmoqda. Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarni dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni o'tkazish va bozor munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liq muhim huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi, tashkiliy iqtisodiy yo'nalishlar ishlab chiqildi. Bu borada mamlakat qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish bilan bog'liq «Er kodeksi», «SHirkat xo'jaligi to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»,

«Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar[3] qabul qilindi. 2001-2006 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo'jalikdarini rivojlantirish konseptsiyasi to'g'risida»[4], «Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»[5]gi kabi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»[6], «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»[7], Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 1996 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qayta tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligini tashkil etish» to'g'risidagi Farmonini bajarish yuzasidan 1996 yil 26 noyabrda o'zining 419-sonli qarorini[8] e'lon qildi.

Vazirlikning suv xo'jaligi bo'yicha asosiy vazifasi sug'oriladigan yerlarning unumdorligini va samaradorligini oshirishga qaratilgan yagona strategik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir.

Respublikamizda mavjud va faoliyat ko'rsatayotgan gidromeliorativ tizimlarni ishlatish va ulardan foydalanish boshqarmalarining asosiy vazifalari:

-agrotexnika talablari va texnologiya kartalariga muvofiq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni sug'orish uchun suv bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligini kafolatli ravishda suv bilan ta'minlash manfaatidan kelib chiqib, suv oqimini tartibga solish, suvdan foydalanuvchilarning buyurtmasiga muvofiq suv berishning kelishilgan rejasini ishlab chiqish:

-magistral va xo'jaliklararo kanallar, kollektor va suv omborlari, gidrotexnik inshootlar, nasos stantsiyalari, quduqlar, elektr uzatish, aloqa tarmoqlari va transformator podstantsiyalari va boshqa ob'ektlar va inshootlardan ishonchli foydalanish;

- suvni tejash texnologiyalari va yangi sug'orish texnikasini joriy etishni ta'minlash, xo'jaliklararo irrigatsiya va meliorativ tarmoqlar hamda gidrotexnik inshootlardan suv resurslarini nobudgarchiligini qisqartirish, shuningdek, xo'jalik sug'orish va meliorativ tarmoqlar va inshootlarga suvdan foydalanuvchilar bilan shartnoma asosida xizmat ko'rsatishni takomillashtirish:

-suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnomalarni hamda ularning joylashuv o'rnini belgilashda korxonalar va tashkilotlarni suv bilan ta'minlash shartlarini kelishish, suv resurslarini xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini ta'minlash, suvning xisobi va undan oqilona foydalanish ustidan idoraviy nazoratni amalga oshirish, davlat suv kadastrini yuritishni tashkil qilish va boshqarishdan iborat.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilgandan so'ng qishloq xo'jaligida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qishloq va suv xo'jaligiga oid qonunlar, farmonlar hamda qarorlar alohida huquqiy munosabatlarni joriy etib, ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq

---

[3] O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun xujjatlari-T. Adolat. 1999. 448 b.

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «2004-2006 yillarda fermer xo'jalikdarini rivojlantirish konseptsiyasi». O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlar to'plami.PF-3242. 2003. 27 oktyabr. 20-son. 31-33 b.

[5] Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O vajneyshix napravleniyax uglubleniya reform v selьskom xozyaystve». 24 marta 2003 g. N UP-3226.

[6] «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2003 yil 28 iyundagi 290-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlar to'plami, rasmiy nashr. 2003. 20-son. 60-62 b.

[7] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlar to'plami, rasmiy nashr. 2003. 20-son. 95-97 b.

[8] O'zbekiston qonun xujjatlari to'plami T., 1996 y. 11-son 18-19 b.

bo'lgan katta imkoniyatlarni ochib berdi. Respublikada paxta yakka hokimligini bartaraf etishga qaratilgan va ilmiy asoslangan, mintaqalarning tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ekin maydonlari shakllantirildi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda O'zbekistonni eng muhim oziq-ovqat resurslari bilan o'z-o'zini ta'minlashga erishish vazifasi bosqichma-bosqich hal etish boshlandi.

Yuuqorida keltirilgan qonun va qarorlar, Fuqorolik kodeksi va Soliq kodeksi asosida «Suv ta'minoti va undan foydalanish to'g'risida namunaviy shartnoma» ishlab chiqilib, u «Ta'minlovchi» (qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi) va «Iste'molchi» (suvdan foydalanuvchi) o'rtasidagi munosabatni qonunlashtiradi.

O'zbekiston hududida XX asrda sug'oriladigan yerlar maydoni 2,4 marta ko'paydi (1914 yilda 1809,5 ming gektar, 2000 yilda 4295,0 ming gektar). Respublika aholisi sonining o'sish sur'atlari sug'oriladigan yerlarni kengaytirish sur'atlaridan yuuqori bo'lishi oqibatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan haydalma yer maydonilarining yildan-yilga kamayish jarayoni davom etmoqda. Yerlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo'jalik yuritishning hamma shakllarini teng huquqlar asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 1998 yil 30 aprelda qabul qilindi.[9] Kodeks 14 bob, 91 moddadan iborat bo'lib, unda yer fondi tarkibi, yer tuzish tartibi, jumladan yer monitoringi, davlat yer kadastrini yuritish belgilangan.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish mahalliy, iqtisodiy, mehnat va tabiiy resurslardan to'la foydalanish asosida qishloq xo'jaligini jadal sur'atda yuksaltirish, ilg'or texnologiyani, melioratsiya va irrigatsiyani rivojlantirish, ishlab chiqarishning bozor iqtisodiyotiga xos yangi shakllaridan (fermerlik) samarali foydalanish bilan bog'liq.

Xar qanday xo'jalik yuritish shakli muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy, ijtimoiy va psixologik xarakterdagi bir qator omillar ta'sirida shakllanib, o'ziga yo'l ochib boradi. Fermer xo'jaligining vujudga kelishi va shakllanishida uning tashkiliy-iqtisodiy asoslari muxim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra fermer xo'jaligi tashkiliy-xuquqiy jixatdan:

- xo'jalik a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan;
- o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan xolda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi;
- o'z nomi o'yib yozilgan hamda gerb tasviri tushirilgan muxrga hamda shtampga ega, yuridik shaxs maqomidagi;
- bank muassasalarida xisob-kitob va boshqa xisob varaqalar ochadigan;
- tegishli davlat organlarida ro'yxatdan o'tgan;
- boshqa korxonlar, tashkilotlar, birlashmalar hamda muassasalar bilan o'zaro teng xuquqli munosabatlarga kiruvchi mustaqil xo'jalik yuritish sub'ekti xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muxim yo'nalishlari to'g'risida»gi farmonida fermer xo'jaliklarini shakllantirishning quyidagi printsipial qoidalari belgilab berilgan:

- fermer xo'jaliklari qoida tariqasida, tugatiladigan zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida barpo etiladi.
- fermer xo'jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan xususiy korxona shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperatsiyalarga birlashish xuquqi bilan barpo qilinadi;
- yer maydonlari fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatli asosda, ijara muddati davomida meros qilib qoldirish xuquqi bilan ijaraga foydalanish uchun beriladi;
- fermer xo'jaliklariga beriladigan yer maydonlari shirkat xo'jaliklarining balansidan chiqariladi;

[9] Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси ва қишлоқ хўжалигига оид қонун хужжатлари. Т., Адолат 1999, 448- б.

- yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetkazib berish hamda moddiy-texnika resurslari va xizmatlarniolish uchun shartnomalarni faqat fermer xo'jaliklarining o'zlari tayyorlov, qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzadilar.

Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining boshg'a xo'jalik yuritish shakllari bilan teng sharoitlarda va sog'lom raqobat asosida rivojlanishi uchun mustaxkam xuquqiy-me'yoriy baza yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi, «Fuqarolik kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar, respublika Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Maxkamasining qarorlari, fermer xo'jaliklari faoliyatining mulkiy daxlsizligi va tadbirkorlik erkinligini ta'minlashga hamda qo'llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining qonun xo'jjatlari va xuqumat qarorlarida fermer xo'jaliklariga berilgan kafolatlar, ularning xuquqlarini ximoya qilish hamda rag'batlantirish choralari belgilab beriladi.

Fermer xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining sub'ekti sifatida qonun bilan mustaxkamlab qo'yilgan bir qator xuquqlarga ega:

- ishlab chiqarish faoliyatini o'ziga berilgan yer uchastkasiga ustavda nazarda tutilgan doirada mustaqil tashkil etish;
- yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan maxsulotga mustaqil ravishda narx belgilash;
- o'zi yetishtirgan maxsulotni, shu jumladan bu maxsulotni iste'molchilarga o'z xoxishi bo'yicha realizatsiya qilish xuquini tasarruf etish;
- tadbirkorlikdan qonun xo'jjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;
- ijara beruvchining ruxsati bilan yoki qonunda yoxud ijara shartnomasida nazarda tutilgan xollarda yer uchastkasini ijaraga berish xuquqini kredit olish uchun garovga qo'yish;
- o'rtava kichik korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;
- xodimlarni ishga yollash va ular bilan tuzilgan mexnat shartnomalarini bekor qilish.

SHu bilan birga fermer xo'jaligi o'z zimmasiga muayyan bir majburiyatlarni ham oladi:

- ijaraga olingan yer uchastkasini bir yil ichida o'zlashtiri, undan qat'iy belgilangan maqsadga foydalanish va unga zarar yetkazmaslik;
- yer uchastkasini asrash, uning unumdorligini saqlash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlar qilish;
- agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;
- fermer xo'jaligining majburiyatlari va qarzlari bo'yicha to'la javobgar bo'lish;
- fermer xo'jaligining barcha a'zolari hamda mexnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar uchun qonun xo'jjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqarii Pensiya jamg'armasiga va Axolini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasiga majburiy badallar to'lash;
- fermer xo'jaligining a'zolari hamda mexnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslarning mexnat faoliyati xisobini yuritish;
- xo'jalik a'zolari uchun xavfsiz mexnat sharoitini ta'minlash.

Maxsus tuzilgan yer fondi negizida fermer xo'jaliklarini tuzish isloxotlarning dastlabki bosqichlarida ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan. CHunki, barcha ekin maydonlari yirik qishloq xo'jaligi korxonalarining balansida bo'lgan hamda fermer xo'jaliklari o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini respublika miqyosida ko'rsatib berishga ulgurmagan ilk bosqichlarda ularni shakllantirish asosan xuqumatning topshirig'iga muvofiq maxsus yer fondi tuzish orqali amalga oshirilgan. Xususan, Vazirlar Maxkamasining 1991 yil 30 dekabrdagi 315-sonli qarori bilan 200 ming gektar, 1994 yil 23 fevraldagi 87-sonli qaror bilan 76921 gektar, 88-sonli qarori

bilan 100 ming gektar, jami 376921 gektar yer fondi ajratilgan va 17325 ta fermer xo'jaliklari tashkil etilgan.

Fermer xo'jaligini yuritish istagini bildirgan fuqarolar birinchi navbatda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 10-bandida belgilab berilgan tartibda uzoq muddatli ijaraga yer uchastkasi ajratishni so'rab qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi nomiga ariza beradilar. Bunda raizalarni berish va ko'rib chiqish qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib olish tugagan vaqtda to'g'ri kelishi maqsadga muvofiqdir.Demak mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish fermer xo'jaliklarining me'yoriy-xuquqiy asoslari yaratildi.

### 1.3.Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishining iqtisodiy-geografik taxlili

Namangan viloyati Farg'ona vodiysidagi qadimgi sug'orma dehqonchilik rivojlangan va sug'orish inshootlari barpo qilingan hudud hisoblanadi. Zamonaviy sug'orish inshootlarini barpo qilish va Norin daryosi suvlaridan foydalanishga Qo'qon xonligi davrida asos solingan. 1821 yil Norin daryosidan Yangiariq kanali qaziladi. Ushbu kanal Namangan shahri va uning atrofidagi dehqonchilik hududlari suv ta'minotini yaxshilash imkonini beradi.

Namangan viloyatida suv xo'jaligi majmuasining rivojlanishi XX asr boshlarida CHor Rossiyasining o'lkadagi mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq holda yuz berdi. Rossiya sanoatini paxta bilan ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibida paxta maydonlarining kengayishiga erishish uchun irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish zarur bo'lgan edi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ham paxtachilikni jadal rivojlantirishdan iborat markaz siyosati-Farg'ona vodiysi viloyatlarida irrigatsiya inshootlarini kengaytirishni taqozo etishi suv xo'jaligi majmuasini shakllanishidagi belgilovchi omil bo'ldi.

1925-1926 yillarda Namangan viloyatida Podshootasoy irrigatsiya tizimi, Yangiariq, Norin va boshqa sug'orish tizimlarini tubdan qayta tiklash ishlari amalga oshirildi. Natijada, 1926 yili 2000 gektarga yaqin yerlarni sug'orish imkoniyati yuzaga keldi. 1929 yilda 1920 yilga nisbatan ekin maydonlari 70 foizga o'sdi, paxta eqiladigan maydonlar esa 9 marta kengaydi. 1928-1929 yillarda Uchqurg'on cho'lini o'zlashtirish maqsadida uzunligi 36,6 km bo'lgan Oktyabrь kanali qurilishi 5000 gektar yerning suv ta'minotini yaxshilash imkonini berdi.

1933-1934 yillarda Eshonbobo arig'ining kengaytirilishi va uzaytirilishi (hozirgi Mingbuloq tumanidagi Oxunboboev nomli kanal) Markaziy Farg'onada yangi yerlarni o'zlashtirishni salmoqli hajmlarda amalga oshirish mumkin bo'ldi.

1938 yil Pop tumanida uzunligi 9 km bo'lgan Langar arig'i qazilishi tufayli 600 gektar yangi yerlar o'zlashtiriladi. 1939 yil 1 avgustda qurilishi boshlangan Katta Farg'ona kanali hamda 35 kunda (1940 yil 10 fevraldan 15 martga qadar) qurib bitkazilgan SHimoliy Farg'ona kanallari qishloq xo'jaligi rivojlanishiga kuchli turtki berdi. SHimoliy Farg'ona kanali 42000 gektar yerning suv taminotini yaxshilabgina qolmay, qo'shimcha 19000 gektar yangi ekin maydonlarini o'zlashtirish imkonini berdi.

1941-1945 yillarda Namangan viloyatida irrigatsiya qurilishlari davom etdi. 1942 yilda qurilgan Kosonsoy va CHust tumanlari hududlaridagi uzunligi 40 km dan iborat CHust kanali 4386 gektar, 1944 yilda qurilgan 5,5 km dan iborat Yuuqori Uchqo'rg'on kanali esa 1600 gektar yangi yerlarni sug'orish imkonini berdi. O'rta To'qay suv omborida 1950 yil 100 mln kubometr suv to'plandi. SHuningdek, 1949 yilda CHust kanali, 1947-1949 yillarda Oxunboboev nomli kanal, 1950 yil Podshootasoy irrigatsiya tizimidagi Xodikent (19 km) kanallarining kengaytirilishi tufayli ekin maydonlari 7,0 foizga ko'paydi, lalmikor yerlardagi ekin maydonlari esa 4 marta ko'paydi.

SHunga qaramay, sug'orish tarmoqlarining buzilishi, yerlarning sho'rlanishi va botqoqliklar hosil bo'lishi tufayli hamda viloyatning shimoliy qismlarida, ayniqsa, CHust, Pop,

Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida suv ta'minotining yaxshi emasligi, suv tanqisligidan dehqonchilikka yaroqli katta maydonlar qishloq xo'jaligi tasarrufidan chiqib ketgan edi. Ularni qayta tiklash va qishloq xo'jaligi tasnifiga kiritish uchun birinchi navbatda irrigatsiya qurilishi ishlarini kuchaytirish, ariq-zovurlarni tozalash va ta'mirlash lozim edi.

1950 yilda Namangan viloyatida ekin maydonlari 1913 yil darajasiga yetdi. Ekin maydonlari tarkibida paxta asosiy o'rinni egalladi. (100,6 ming gektar). Mavjud 164,7 ming gektar ekin maydonlarining 31,3 ming gektari donli ekinlardan (donli ekinlar 1913 yilga nisbatan 3 marta qisqardi), 2,9 ming gektar sabzovot-poliz va kartoshka ekinlaridan va 27,1 ming gektar yem-xashak ekinlaridan iborat bo'ldi. 1950 yilda Namangan viloyatida 242,0 ming tonna paxta tayyorlandi va hosildorlik gektaridan o'rtacha 24,0 tsentnerga yetdi. 1955-1960 yillarda ekin maydonlari 183,2 ming gektardan 186,1 ming gektarga yetdi yoki 2,9 ming gektarga ko'paydi.

Namangan viloyatida 1966-1970 yillarda 16760 gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. «Namangansuvqurilish»(«Namanganvodstroy») va Namangan irrigatsiya qurilishi («Namanganirstroy») tashkilotlari 250 ta doimiy va ko'chma nasos stantsiyalarini ishga tushirdilar. 145 ta artezian quduqlari kovlandi. 6000 gektar adir yerlar suv bilan ta'minlandi va 53000 gektar yerning suv ta'minoti yaxshilandi. 300 km dan ortiq kanallar betonlashtirildi. Yuuqoridagi maqsadlarga kapital mablag'lardan qilingan harajatlar 81,0 mln so'mni tashkil etdi.

1970 yillarda viloyatda 25 ming ga yaqin yerni o'zlashtirish, eskidan sug'orib kelinayotgan 15 ming ga yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlari amalga oshirildi.

1974-1976 yillarning eng muhim irrigatsiya inshootlaridan biri Katta Namangan kanalining ikkinchi navbat qurilishi bo'ldi. 1976 yilga kelib, kanalning uzunligi 82 km ga yetkazilib, 13,5 ming gektar yerning suv ta'minoti yaxshilandi.

Uzunligi 180 metrli «Namangan-1» deb nomlangan nasos stantsiyasi o'ziga xos ko'chma qurilma bo'lib, uni bir joydan ikkinchi joyga olib borib ishlatish ham mumkin. O'ziga xos bu qurilma birinchi bor Katta Namangan kanalida sinab qo'rildi. Kosonsoy atrofidagi yerlar ilgari Kosonsoy suv omboridan suv ichardi. Keyingi yillarda suv ombori suvi yetishmay qoldi. Kanal qurilgach, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, CHust tumanlari Norin suvidan ichadigan bo'ldi. Kanalning ishga tushishi bilan SHimoliy Farg'onaning suvga tanqis adir va qir zonalarini qishloq xo'jaligi faoliyatiga jalb etildi va bu iqtisodiy samara berdi.

2011 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda 1428659,1 mln. so'mni va 2010 yilning shu davriga nisbatan 7,0 foizga o'sdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlari 857634,6 mln.so'mni (2010 yil yanvar-dekabriga nisbatan 106,6 foiz), chorvachilik mahsulotlari 571024,5 mln. so'mni (107,7 foiz) tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha ifodalanadi:

**Dexqochilik.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda joriy yil hosili uchun qishloq xo'jalik ekinlarining umumiy ekin maydoni 221,1 ming gektarni tashkil qildi.Boshoqli don ekinlari bilan band bo'lgan ekin maydoni 89,1 ming gektar, paxta ekin maydoni 87,1 ming gektar, kartoshka 6,5 ming gektar, sabzavot ekinlari 13,0 ming gektar maydonni tashkil qildi.

**Hosil yig'imi.** 2012 yil 1 yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda 492719 tonna jami don (o'tgan yilga nisbatan 100,1 foizga), 167002 tonna kartoshka (109,3 foiz), 488690 tonna sabzavot (ochiq va yopiq yerlarda) (111,2 foiz), 53223 tonna poliz (108,8 foiz), 138120 tonna meva (109,4 foiz) va 77427 tonna uzum (104,6 foiz) yetishtirildi.

**Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida**







**CHorvachilik.** 2012 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar 543644 boshga (o'tgan yilga nisbatan 104,6 foizga), shu jumladan sigirlar 191242 boshga (103,2 foizga), qo'y va echqilar 627944 boshga (102,2 foizga), parrandalar 2034407 boshga (122,6 foizga) yetdi. 2011 yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo'jaliklarda 87058 tonna tirik vaznda go'sht (o'tgan yilga nisbatan 106,8 foizga ko'p), 422342 tonna sut (109,7 foizga ko'p), 121790 ming dona tuxum (122,3 foizga ko'p) va 12443 tsentner jun (111,2 foizga ko'p) yetishtirildi. Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,5 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,8 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 85,0 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo'jaliklari.** 2012 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining soni 5511 tani tashkil etdi.

Fermer xo'jaliklariga biriktirilgan umumiy qishloq xo'jaligi yer maydoni 264,8 ming gektarni tashkil etib, har bir xo'jalikka o'rta hisobda 48,0 gektardan to'g'ri keldi. Fermer xo'jaliklarida band bo'lganlar soni 83,5 ming kishini tashkil etdi.

2011 yilning yanvar-dekabr oylarida fermer xo'jaliklarida 20217 bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 6518 bosh sigir, 17956 bosh qo'y va echqilar va 534,9 ming bosh parrandalar mavjud. 2010 yilga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 0,6 foizga, shu jumladan sigirlar 6,3 foizga, qo'y echqilar 7,0 foizga, parrandalar soni esa 74,3 foizga ko'paydi.

**Fermer xo'jaliklarida asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari**:

2-jadval

| | Yanvar-dekabr | | 2010 yil yanvar- |
|---|---|---|---|
| | 2010y. | 2011y. | |

| | Tonna | ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz | Tonna | ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz | dekabrga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|---|---|
| Boshoqli don | 385290 | 85,5 | 374554 | 85,1 | 97,2 |
| shu jumladan bug'doy | 383882 | 85,5 | 373552 | 85,1 | 97,3 |
| Kartoshka | 26624 | 17,4 | 30237 | 18,1 | 113,6 |
| Sabzavot | 87124 | 19,8 | 96800 | 19,8 | 111,1 |
| Poliz | 16599 | 33,9 | 15563 | 29,2 | 93,8 |
| Meva va rezavorlar | 49024 | 38,8 | 52225 | 37,8 | 106,5 |
| Uzum | 33940 | 45,9 | 34759 | 44,9 | 102,4 |
| Go'sht, tirik vaznda | 1785 | 2,2 | 1937 | 2,2 | 108,5 |
| Sut | 7477 | 1,9 | 8075 | 1,9 | 108,0 |
| Tuxum, ming. dona | 18255 | 18,3 | 30887 | 25,4 | 169,2 |
| Jun, tsentner | 168 | 1,5 | 188 | 1,5 | 111,9 |
| Pilla, tonna | 2415,3 | 91,3 | 2417,0 | 90,1 | 100,1 |

**Manba: Namangan viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi maьlumotlari asosida tuzildi.**

## II.BOB.EKOLOGIK MURAKKAB HUDUD NAMANGAN VILOYaTI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI

### 2.1. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy-ekologik xususiyatlari

Xozirgi paytda O'zbekistonda 180 ming km. xo'jaliklararo kanallar 92 ming gidrotexnik inshoatlar, 230 ming km xo'jalik kanallari, 120 ming km. - kolektor -zovur tarmoqlari, 35- suv ombori mavjud.

Melioratsiya tufayli sug'oriladigan yerlar 4 mln 3 ming gektar yetkazildi. Faqatgina 1965 yildan 1995 yilgacha yoki 30 yil ichida 1 mil. 600 ming gektar yer o'zlashtirib qishloq xo'jalik xissasiga kirtildi.

Yangi yerlar Mirzacho'l, Qarshi, SHerobod, Jizzax cho'llarini Buxoro, Farg'ona va boshqa viloyatlaridagi bo'sh yerlarni o'zlashtirish evaziga amalga oshirildi.

Respublikamiz axolisini yildan-yilga o'sishi yangi yerlarni o'zlashtirishni taqoza etadi. SHuning uchun ham Vazirlar mahkamasining qarori bilan 2000 yilgacha Respublikamiz bo'yicha 550-570 ming gektar yerni o'zlashtirish mo'ljallangan. Yangi o'zlashtirilgan yerlar asosan sho'rlangan va botqoqlangan tuproqlar bo'lib ular qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishi, rivojlanishi va xosildorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda sho'rlangan va botqoqlangan yerlar bilan bir qatorda shamol va suv eroziyasiga uchragan sel oqimi, qum kuchishga moil yerlar keng tarqalgan. Tabiatning bu xodisalari natijasida ham juda ko'p qishloq xo'jalik ekinlari zararlanadi va natijada xosil kamayadi. Bunday tabiiy noqulay jarayonlarni oldini olish va tuproq unumdorligini ko'paytirishda melioratsiyaning ahamiyati juda katta.

Erning noqulay tabiiy sharoitini (iqlim, tuproq, gidrologiya va gidrogeologiya sharoitlarini) tubdan yaxshilashga qaratilgan fan qishloq xo'jalik melioratsiya shug'ullanadi.

Namangan viloyatida ham yuqoridagi muommolar mavjud bo'lib, yer va yer fondidan samarali foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya (sug'orish) va deflyatsiya (shamol) erroziyasiga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolizarb muommolaridan biriga aylandi. Sug'orilayotgan maydonlarda yer osti suvlarining ko'tarilish dinamikasi, minerallashuv darajasi, tuproqlarning sho'rlanishi va ikkilamchi sho'rlanishi, tuproq boniteti va uni yaxshilash tadbirlari, sug'orish tizimidagi muhandislik va ijtimoiy muhofaza masalalari, moliya-kredit munosabatlari bilan bog'liq iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishni kun tartibiga qo'ymoqda. (1-ilova)

Namangan vioyatida jami sug'oriladigan maydonlar 282,5 ming gektarni tashkil etadi. Mavjud maydonlarning 17609,6 ming gektari kuchsiz sho'rlangan, 7197,5 gektari o'rtacha sho'rlangan, 880,0 gektari kuchli sho'rlangan yerlarga to'g'ri keladi. Viloyat bo'yicha jami sho'rlangan maydonlarni baxor va kuz fasillaridagi xolatini taxlil qilinsa quyidagi xolatni ko'rish mumkin. Baxor faslida jami sho'rlangan yerlar viloyat bo'yicha 10426,0 gektarni, kuz faslida esa 25546,6 gektarni tashkil qiladi. Bu xolat viloyatning Mingbuloq, Pop, Kosonsoy tumanlari uchun alloxida axamiyatga ega. Mingbuloq tumanida baxor faslida 5858,8 gektar maydonlar sho'rlangan bo'lsa, kuz faslida kelib, 15714,0 gektarga yetadi. Pop tumanida baxor faslida 3404,2 gektar maydonlar sho'rlanishga tortilgan yerlar xisoblansa, kuz faslida 8136,0 gektarga, Kosonsoy tumanida baxor faslida 185,0 gektar sho'rlangan yerlar mavjud bo'lsa, kuz fasliga borib, 263,0 gektarga ortadi. Agar qish faslida mavjud tumanlarda tuproq sho'rini yuvish, zakan-zovurlarni tamirlash ishlari belgilangan reja asosida amalga oshirilmasa, bu miqdor ikki barobarga ortishi mumkin.

Namangan viloyatida mavjud sug'oriladigan maydonlarning 135882 gekari zakan-zovurlar bilan ta'minlangan, jami zakanlarning uzunligi 5070,7 km dan iborat. Zax qochirish tarmoqlarini 1813,8 km qismi xo'jaliklararo zakanlar, 3227,31 km qismi xo'jalik ichki va 29,6 km qismini yopiq-yotik zovurlardan iborat. Sug'oriladigan maydonni 143294 gektari adirliklardan va adirlik

yon bag'ri yerlardan iborat bo'lganligi sababli zakan-zovur tarmoqlarini qurishga ehtiyoj yo'q, bu yerlar tabiiy zovurga ega, ya'ni soylar va jarliklarga yer osti suvlari yig'iladi. Mintaqada yer osti sizot suvlarining sathi sug'orilayotgan unumdor yerlarning ekologik holati bilan belgilanadi va yog'in miqdoriga ham bog'liq. Yillik yog'in asosan yanvar, fevral, mart va noyabr, dekabr oylariga to'g'ri kelib, shunga mos ravishda zakan - zovurlardan chiqayotgan zax suvlari miqdori ancha yuuqoridir. Sug'orish mavsumi hisoblangan iyun, iyul, avgust va sentyabr oylarida esa sug'orishga olingan suv miqdori ortib borishi kuzatiladi.

Bunga muvofiq viloyatning Mingbuloq, Namangan, Norin va Uychi tumanlarida yillik sug'orishga olingan suvga nisbatan zakan-zovurlardagi zax suvlarining oqimi ortib bormoqda. Masalan: Mingbuloq tumanida yillik zakan-zovur suvlarining oqimi 580,7 mln.$m^3$ ga yetadigan bo'lsa, tuman chegarasiga olingan suv miqdori 358,0 mln.$m^3$ni, xo'jaliklararo zovurlardan oqib chiqqan suv miqdori 618,66 mln.m3 ni tashkil qiladi.Namangan tumanida zakan-zovur suvlarining oqimi 289,3 mln.$m^3$, tuman chegarasiga olingan suv miqdori 225,36 mln.$m^3$ ga. Norin tumanida zakan-zovur suvlarining oqimi 562,4 mln.$m^3$, tuman chegarasiga olingan suv miqdori 219,6 mln.$m^3$ ni, xo'jaliklararo zovurlardan oqib chiqqan suv miqdori 570,50 mln.$m^3$ ni tashkil qiladi Uychi tumanida esa zakan-zovur suvlarining oqimi 208,6 mln.$m^3$, tuman chegarasiga olingan suv miqdori 94,1 mln.$m^3$ ni xo'jaliklararo zovurlardan oqib chiqqan suv miqdori 215,64 mln.$m^3$ ni tashkil qiladi.Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatda yer osti suvlarining jiddiy taьsiri tuproq sho'rlanishiga taьsir ko'rsatmoqda.

Mingbuloq tumanida Sirdaryoning suv oqimini ta'siri katta bo'lib, Sirdaryodan katta miqdorda suv shimilishning oqibatida zakan-zovur suvlarining oqimi ortmoqda. Namangan va Uychi tumanlarining hamma mavjud meliorativ tarmoqlari Podshootasoy havzasida joylashuvchi SHimoliy Farg'ona Kanali bilan Sirdaryo va Norin daryolari oralig'ida joylashganligi, yuuqoridagi muammolarni vujudga kelishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Norin tumani ikki daryo ya'ni, Norin va Qoradaryo oralig'ini joylashganligi uchun ham bu daryolarning ta'siri katta bo'lmoqda.

Namangan viloyatida keyingi 50 yil mobaynida adirlar kuchli sur'atda o'zlashtirildi. Bu Jiydalisoy, Morg'uzorsoy, Jabborsoy, Kengsoy, Sassiqsoy kabi soylik va adirlar rel'efining parchalanib ketishiga, kuchli errozion jarayonlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa CHust, To'raqo'rg'on, Namangan, Yangiqo'rg'on, CHortoq, Kosonsoy tumanlaridagi lyoss va lyossimon qatlamlar intensiv o'zlashtirish hamda noto'g'ri sug'orish ta'sirida irrigatsion eroziya jarayonlari rivojlanganligi va tuproq sho'rlanishi hodisalarining kengayib borayotganligi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sabablari yerlarni noto'g'ri haydash, yonbag'irlari qiya bo'lgan joylarga bir yillik ekinlar ekish, o'rmonlarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishdir. Sug'orish eroziyasi asosan suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqadi va bu jarayon ham kengayib bormoqda.

Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishga, maydonlarning sho'rlanishi va qayta sho'rlanishi ham sezilarli ravishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yerlarning sho'rlanishi tufayli tuproq unumdorligi yil sayin pasayib bormoqda.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini hamda yer osti sizot suvlarini sathini me'yorida ushlab turish maqsadida har yili mavjud zakan-zovurlarni 33-35 foizi mexanizmlar yordamida tozalanib turadi. Umumiy zakan-zovurlarni solishtirma uzunligi sug'oriladigan maydonga nisbatan 18,2 m/ga, zakanlar bilan ta'minlangan maydonga nisbatan 37,4 m/ga ni tashkil qiladi.

# NORIN - SIRDARYO IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI GIDROGEOLOGIYA MELIORATIV EKSPEDITSIYASI MELIORATIV

# XARITASI

M: 1: 100 000




**Viloyat bo`yicha mavjud meliorativ tarmoqlar haqida ma'lumot**

| Umumiy zakan-zovur tarmoqlari uzunligi km | Shundan | | | Zakan bilan ta'minlangan maydon | Kuzatuv punktlarini umumiy soni | Shundan | | | Yer osti tik quduqlari soni dona | Suv o`lchash posti dona | Shundan | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Xo`jaliklararo km | Xo`jalik ichki km | Yotiq-yopiq zovur | | | Oddiy | P'ezometr | | | | Ko`prikli | Reykali |
| | | | | | | | Yakka | Juft | | | | |
| 5070,7 | 1813,8 | 3227,3 | 29,6 | 135621 | 1467 | 1292 | 124 | 51 | 233 | 120 | 71 | 49 |
| | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | |

Bugungi kunda Respublikamiz qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchiligida 1 letr suvni isteьmolchilarga yetkazib berish uchun 23 so'm miqdorida mablax sarflanmoqda. Har yili budjet xisobidan 125 milliard so'mdan ortiq kapital mablax ajratilishi mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda naqadar o'ziga xos qiyinchiliklarni kun tartibiga qo'yayotganligi maьlum. Namangan viloyati ekalogik jixatdan murakkab xudud deb xisoblanishiga sabab, birinchidan mavjud yerlarning meliorativ xolati bo'lib, Ayniqsa viloyatning Mingbuloq, Pop, To'raqo'rg'on, Kosonsoy,CHust tumanlari xisoblansa, ikkinchidan sug'oriladigan maydonlarning 48% i nasos stantsiyalari bilan sug'rilishida belgilanadi. Viloyatdagi CHust, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Pop, CHortoq, Uychi tumanlari alloxida o'rinda turadi. Namangan viloyati 1 letr suvni isteьmolchilarga yetkazib berish Respublikamizdagi boshqa viloyatlardan farqli ularoq qarib 62 so'mga, CHust tumanining ayrim xududlarida hato 128 so'mga yetib qomoqda. Viloyatning CHust, Kosonsoy hatto Pop tumanlarining adir mintaqalarida 1gektar yerdan olinadigan bug'doy xosildorligi 52 tsentnerga yetganda o'z xarajatlarini qoplaydi.

Viloyatda 2011 yilda 282509 ga Sug'oriladigan maydon bo'lib, shundan 136373 ga kollektorlar bilan ta'minlangan, jami kollektorlarni uzunligi 5070.7 km. Zax kochirish tarmoqlarini 1813,8 km qismini xo'jaliklararo kollektorlar, 3227.31 km qismi xo'jalik ichki va 29,6 km qismini yopik-yotik kollektorlar, 230 dona meliorativ tik quduqlardan iborat.

Sug'oriladigan yerlarni meliorativ xolatini hamda yer osti sizot suvlarini satxini meyorida ushlab turish maksadida xar yili mavjud kollektorlarni sistemali ta'mirla -tiklash ishlari mexanizmlar yordamida tozalanib turiladi umumiy kollektorlarni solishtirma uzunligi Sug'oriladigan maydonga nisbatan 18,2 p.m/ga, kollektorlar bilan ta'minlangan maydonga nisbatan 37,3 p.m/ga ni tashkil etadi. Sug'oriladigan maydonni 146136 ga qismi adirliklardan va adirlik yon bag'ri yapassik yerlardan iborat bulganligi sababli kollektor tarmoqlarini kurishi extiyojiga ega emas, bu yerlar ta'biiy drenaj, ya'ni soylar va jarliklarga yer osti suvlari sizib chiqishi ta'minlangan.

Xisobot yilida 7 ta suv o'lchash ko'priklari kapital ta'mirlandi. Qolganlarini joriy ta'mirlandi. 2011 yilda yer osti sizot suvlarini satxini meyorida ushlab turish maksadida sistemali ta'mirlash - tiklash ishlari olib borish uchun 2008-2012 yillarga Davlat dasturi ishlab chikildi. 2011 yilda loyixa asosida 901,77 km sistemali ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu esa umumiy kollektor uzunligini 18 foizini tashkil etadi. Sug'oriladigan maydonni 143294 ga qismi adirliklardan va adirlik yon bag'ri yapasqi yerlardan iborat bo'lganligi sababli zakan-zovur tarmoqlarini qurishga ehtiyoj yo'q,

**Viloyat tumanlari bo'yicha xo'jaliklararo kollektorlarni va xo'jalik ichki kollektorlarni uzunligi**

3-jadval

| № | Tumanlar nomi | Kollektorlar umumiy uzunlig. km | SHundan | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | xuj-ro. km | Xuj.ichida. km | yop-yot.zov km | Tik quduq soni dona |
| 1 | Mingbuloq | 1672,2 | 515,3 | 1151,2 | 5.7 | 58 |
| 2. | Kosonsoy | 128,9 | 60,2 | 68.7 | | - |
| 3. | Namangan | 560.5 | 248.5 | 312.0 | - | 61 |
| 4. | Norin | 477,1 | 203,6 | 253,5 | 20,0 | 69 |
| 5, | Pop | 778.2 | 104.5 | 673.7 | | 1 |
| 6. | To'raqo'rg'on | 256.1 | 76,8 | 178.5 | 0,8 | 5 |
| 7, | Uychi | 343.3 | 178.5 | 164.1 | 0.7 | 33 |
| 8. | Uchkurg'on | 55.7 | 20.8 | 34.9 | | |
| 9. | CHortoq | 139,7 | 84,7 | 55,0 | | |
| 10. | CHust | 433,8 | 213,1 | 220,7 | | - |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 11. | Yangiqo’rg’on | 225,2 | 107,8 | 115,0 | 2,4 | 3 |

**Manba: Namangan viloyati qishloq va suv xo’jaligi boshqarmasi maьlumotlari asosida tuzilgan.**

bu yerlar tabiiy drenajga ega, ya’ni soylar va jarliklarga yer osti suvlari yig’iladi.

2011 yilda xo’jaliklararo zakanlarning 763,7 km qismi ya’ni 42 foizi mexanizmlar yordamida tozalandi.

**Namangan viloyati xo’jaliklararo va xo’jalik ichidagi zakan-zovurlarni mexanizmlar yordamida tozalash**

4-jadval

| № | Tumanlar | Xo’jaliklararo. Xo’jalik ichida | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Uzunligi km | Hajmi m/m$^3$ | Uzunligi km | Hajmi m/m$^3$ |
| 1 | Mingbuloq | 149 | 521 | 481,3 | 1010,7 |
| 2 | Kosonsoy | 42 | 195 | 17,6 | 37,9 |
| 3 | Namangan | 130,3 | 387 | 111,2 | 133,5 |
| 4 | Norin | 134 | 351 | 204 | 428,4 |
| 5 | Pop | 52 | 161 | 236,3 | 496,2 |
| 6 | To’raqo’rg’on | 30,5 | 91 | 59,5 | 126 |
| 7 | Uychi | 53,7 | 160 | 47,9 | 101,6 |
| 8 | Uchqo’rg’on | 16 | 49 | 8,3 | 17,4 |
| 9 | CHortoq | 30 | 89,6 | 13 | 27,9 |
| 10 | CHust | 84,2 | 250 | 88,6 | 187,1 |
| 11 | Yangiqo’rg’on | 42 | 125 | 27,3 | 57,3 |
| | Viloyat bo’yicha | 763,7 | 2379,6 | 1295 | 2724 |

**Manba: Namangan viloyati qishloq va suv xo’jaligi boshqarmasi maьlumotlari asosida tuzildi.**

## 2.2 Namangan viloyatida qishloq xo’jaligida yerlarning meliorativ xoati va uni yaxshilashga qaratigan chora-tadbirar.

Melioratsiya-lotincha yaxshilash demakdir. Melioratsiyaning asosiy vazifalari 2 ga bo’linadi.

1. Sug’orish melioratsiyasi. 2. Zax qochirish melioratsiyasi.

Zax qochirish melioratsiyasi asosan tuproqda to’plangan ortiqcha suvlarni (nam) chiqarib tashlash uchun xizmat qiladi.

Sug’orish melioratsiyasining vazifalariga quydagilar kiradi:

1. Sug’orishni rivojlantirish, uchun yer usti suvlarini rostlash va qo’shimcha suv manbalarini qidirish.
2. Sug’oriladigan yerlarda sho’rlanish va botqoqlanishni oldini olish hamda ularga qarshi ko’rash.
3. Qo’riq va bo’z tuproqlarni o’zlashtirish.
4. Yerlarning iqlim sharoitini yaxshilash, shamol va garmsel, tuproq eroziyasi, sel oqimi, qumlarni ko’chshiga qarshi ko’rashish.

Maxalliy joylarning iqlim tuproq, yer usti va sizot suvlari rejimini yaxshilash melioratsiyaning asosiy ob’ektlaridir.

Bu ob’ektlarni noqulay sharoitlarini yaxshilash bo’yicha meliratsiya quydagi turlarga bo’linadi.

1. Gidrotexnik melioratsiyasi bunda suv omborlari, sug'orish tarmoq-lari, suv chiqarish inshoatlari, kollektor-zovur tarmoqlari va selga qarshi inshoatlarni loyhalashtirish va qo'rilish ishlarini amlga oshiradi.

2. Suv-xo'jalik melioratsiyasi: bu sug'orish va zax qochirish inshoatlaridan to'g'ri foydalanish, suvdan samarali tejab-tergab foydalanish, suv isrofgarchiligiga qarshi ko'rashish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

3. Agrotexnik melioratsiyasi; bunda agrotexnik tatbirlarni o'tkazish yo'li bilan mikroiqlim, tuproq xossasi va sizot suvlar tartibi yaxshi-lanadi. Bu tadbirlarga yer tekislash, ixotazorlar barpo qilish chuqur shudgorlash, yumshatish, tilmalash, yerga o'z vaqtida yuuqori sifatli ishlov berish, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni va ximiyaviy moddalarni yuvish tadbirlari kiradi.

4. Biologiya melioratsiyasi; bunda tuproqning meliorativ xolatini yaxshilash uchun turli organiq moddalar solish (gung, lignin, maydalangan go'zapoya, organiq chiqindilar) va beda ekini ishtrokidagi ilmiy asoslangan almashlab ekish, tuz ta'siriga chidamli ekinlar, tuproq tarkibidagi zaxarli moddalarni ko'proq o'ziga surib oladigan ekinlarni, tez o'sib yerni qoplab bug'lanish va tuz tuplanishini kamaytiradigan ekinlarni ekish va boshqa tadbirlar kiradi.

5. Ximiyaviy melioratsiya: bunda ximiyaviy birikmalar qo'shish yo'li bilan noqulay tuproq xossalar yaxshilanadi. Bunda nordon tuproqlarni ohoklash, sho'rtobli tuproqlarni gips, fosfogipslash, zichlashgan tuproqlar donadorligini oshirish uchun K-4, K-9 tuproqni shamol eroziyasidan saqlash uchun esa SSB ximiyaviy birikmalarni sepish tadbirlari kiradi.

6. Mexaniq melioratsiya; tuproq yuzasida to'plangan tuzlarni mexaniq usullar yordamida tuplash va dalalardan tashqariga chiqarish, tuproqni turli chiqindilardan tozalash, ko'chma qumlarni mexaniq usullar bilan mustahkamlash, mexaniq tarkibi og'ir tuproqlarni qumlash toshloq yerlarni ustiga tuproqlar solish kabi tadbirlarni o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi PF 3932 sonli "Sug'oriladigan yerlarni meliorativ xolatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishiga asosan Namangan viloyatida 2011 yilda Moliya Vazirligi xuzuridagi Sug'oriladigan yerlarni meliorativ xolatini yaxshilash jamg'armasini boshqarish Deportamenti tomonidan yerlarni meliorativ xolatini kompleks yaxshilashga 6.272.36 mln.so'm mablag' ajratildi va bu mablag'ga; 5 dona loyixada taьmirlash ishlariga 1.694.5 mln.so'mlik, hamda 21 dona loyixalarda 901.77 km uzunlikda 4.577.9 mln.so'm mablag' o'zlashtirildi.

Jumladan; **Mingbuloq tumanidagi "Sariq suv" kolletorini 6.7** km uzunlikdagi qismi rekonstruktsiya qilindi, bu ishlarga 133.26 mln.so'm mablag' ajratildi.

**Namangan tumanidagi** "Poshsholik" kolletorini 0.9 km uzunlikdagi qismiga 79.00 mln.so'mlik mablag' hamda "SHimoloiy" kolletorini 2.5 km uzunlikdagi qismiga 81.8 mln.so'mlik mablag' ajratilib rekonstruktsiya qilindi.

Viloyat tumanlarida 19 dona meliorativ tik quduqlarni rekonstruktsiyaga 754.4 mln.so'mlik ishlar bajarildi.

Yildan yilga o'tuvchi Pop tumanidagi Qoraqalpoq meliorativ nasos stantsiyasini rekonstruktsiya qilish ishlariga 646.0 mln.so'mlik ishlari bajarildi.

**Mingbuloq tumanida 2011 yilda "Achchiqko'l-1"** tizimida 260.0 km uzunlikda 1047.10 mln.sum mablag' rejalashtirilgan bo'lib, amalda 260 km uzunlikda, 1002,958 mln.so'm mablag'ga zovur tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash

**Pop tumanidagi "Achchiqko'l"** tizimidagi 67,2 km uzunlikda 363,80 mln.so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, amalda 67,2 km uzunlikda, 350,630 mln.so'm mablag'ga zovur tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash ishlari,

**"Qorakalpok"** tizimidagi 83,2 km uzunlikda 359,80 mln.so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, amalda 83,2 km uzunlikda, 359,814 mln.so'm mablag'ga zovur tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash ishlari,

**“Sirdaryo”** tizimidagi 49,9 km uzunlikda 195,302 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 49,9 km uzunlikda, 195,3 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari

**Kosonsoy tumanida “Kosonsoy”** tizimidagi 25,0 km uzunlikda 114,50 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 25,0 km uzunlikda, 114,539 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**Namangan tumanida “Eski namangan selxona”** tizimidagi 45,0 km uzunlikda 146,60 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 45,0 km uzunlikda, 146,295 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**“SHarkiy”** tizimidagi 48,0 km uzunlikda 183,90 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 48,0 km uzunlikda, 183,542 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**Norin tumanida “Qoradaryo”** tizimidagi 20,1 km uzunlikda 98,80 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 20,1 km uzunlikda, 98,776 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**“Kolgandaryo”** tizimidagi 21,2 km uzunlikda 99,80 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 21,2 km uzunlikda, 99,021 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**To’raqo’rg’on tumanida “Yortepasoy”** tizimidagi 20,0 km uzunlikda 86,80 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 20,0 km uzunlikda, 86,786 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**“Naxor”** tizimidagi 36,0 km uzunlikda 155,50 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 36,0 km uzunlikda, 155,489 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**Uychi tumanida “CHortoqsoy”** tizimidagi 29,5 km uzunlikda 102,20 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 29,5 km uzunlikda, 102,191 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**“Norindaryo”** tizimidagi 31,8 km uzunlikda 128,80 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 31,8 km uzunlikda, 123,446 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**CHortoq tumanida “CHortoqsoy”** tizimidagi 15,0 km uzunlikda 64,20 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 15,0 km uzunlikda, 64,211 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**“SHo’rbuloq”** tizimidagi 30,0 km uzunlikda 119,90 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 30,0 km uzunlikda, 119,858 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**CHust tumanidagi “Baymok”** tizimidagi 50,0 km uzunlikda 220,630 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 50,0 km uzunlikda, 220,626 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**“Buvana”** tizimidagi 20,0 km uzunlikda 74,20 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 20,0 km uzunlikda, 74,245 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari,

**Yangiqo’rg’on tumanida “Namangansoy”** tizimidagi 49,9 km uzunlikda 186,60 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 49,9 km uzunlikda, 186,641 mln.so’m mablag’ga zovur tarmoqlarini ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari Namangan viloyati tumanlarida 60 dona meliorativ tik drenaj quduqlarni joriy ta’mirlashga 389,94 mln.so’m mablag’ rejalashtirilgan bo’lib, amalda 60 dona meliorativ quduqlarda ta’mirlash ishlari bajarildi.

Mavjud 1467 dona kuzatuv quduqlaridan 1292 donasi GGME xisobida bo'lib, 175 donasi tik meliorativ quduqlar xududidagi yakka va kush pezometrlar xisoblanadi. Ular NS va AB xisobida turadi.

1292 dona kuzatuv quduqlaridan 123 dona kuzatuv quduqlarini kayta ta'mirlash ishlari loyixada bajarildi, 1169 donasini atroflari yovvoiy utlardan tazalandi tumbalari oklandi rakamlari yangilandi.

120 dona suv ulchash postlaridan 7 dona suv ulchash postlari loyixa asosida ta'mirlandi, 113 dona suv ulchash postlarini atroflari tozalandi betonlari oklandi, suv ulchash rekalari kurib chikildi. 732 dona suv utish kuvurlaridan 151 dona kuvurli utish joylarini loyixa bo'yicha pasaytirish va almashtirish, kolgan suv utish kuvurlarida suv kirish va chikish joylarini ko'l kuchi bilan tozalov ishlari amalga oshirildi va suv yullari ravonlashtirildi..

Viloyatdagi 1292 dona oddiy kuzatuv quduqlarini xar dekadada yer osti sizot suvlarini satxini o'lchab borish, sho'rlanishni aniqlash uchun suv namunasi olish, 120 dona suv o'lchash inshoatlaridan suv oqim miqdorini xar 10 kunda reyka orqali, xar oyda bir marta vertushka bilan o'lchash ishlari bajarildi.

2011 yilda viloyat bo'yicha kollektor-drenaj tarmoqlarini sistemali ta'mirlash va tikalsh ishlarini bajarilishi natijasida, qariyb 13,5 ming gektar sug'oriladigan maydonlarning yer osti sizot suvlari satxini pasaytirishga erishildi.

2010 yil 1 noyabr xolatiga tuzilgan meliorativ kadastrada 5145 gektar konikarsiz maydonlar aniqlangan bo'lsa, 2011 yilda barcha rejadagi meliorativ tadbirlarni sifatli bajarilishi natijasida ushbu maydon 4270 gektarni tashkil etmokda yoki o'tgan yilga nisbatan 875 gektar maydonlarni meliorativ xolati yaxshilangani aniqlandi. Bundan tashqari kollektorlada sistemali ta'mirlash va tiklash ishlari bajarilishi natijasida qariyb 13,5 ming gektar maydonlarda yer osti sizot suvlarini satxini pasaytirishga erishildi.

Tik zovur va kollektor tarmoqlarining tashlama suvlarini sho'rlanish kattik koldigi 0,35 dan 0,78 g/l gacha, xlor bo'yicha 0,018-0,04 g/l gacha sug'orishga ishlatiladigan tashlama suvlarini sifati, zax suvlarining differentsial kimyoviy tarkibi klassifikatsiyasini sifati (SANIIRI metodikasi asosan) xlor-ion sulьfatga nisbatan 0,2 gacha konikarli deb topilgan. (2-ilova)

Namuna sifatida Qorakalpok zakan suvlari taxlil qilindi.

-sho'rlanish -0,93 g/l kattik koldik
-xlor -0,040 g/l
-sulьfat -0,528 g/l

Suvni sho'rlanish turi $\frac{Cl}{SO_4}$ aniqlangan xisobi g/l $\frac{0.040}{0.528}$ = 0,08 bu esa 0,2 dan kam

bu zakan suvining sho'rlanishi sulьfatli tipda.

Erlarni meliorativ xolatini urganishda Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari xavza boshkarmasi Gidrogeologiya meliorativ ekspeditsiyasiga karashli nazorat quduqlarining va suv ulchash inshootlari (gidropost)ning ahamiyati kattadir.

Nazorat quduqlarini xaritaga tushirish va gidroizogips tuzishda yerlarni absolyut otmetkalarini aniq belgilash, bajariladigan ishlarga ta'sir etadi. Ekspeditsiya bo'yicha topogeodezik ishlar asosan yangi kurilgan kuzatuv quduqlari va kayta ta'mirlangan quduqlarni absolyut otmetkalarga boglash ishlari asosida olib borildi.

Viloyat bo'yicha mavjud 1292 dona kuzatuv kudugidan 1169 donasi 100 foiz qilib joriy ta'mirlandi, va 123 donasi 100 foiz qilib kayta ta'mirlandi. Kayta ta'mirlangan kuzatuv quduqlarini absolyut balandliklari tayanch nuqtalarga ya'ni reperlarga boglanib, kayta nivelirovka qilindi. Nivelirovka ishlari orqaga kaytish usuli bilan tekshirildi.

**Viloyat bo'yicha yer osti zax suvlarni satxini ulchash uchun tumanlarda 123 dona quduq kayta ta'mirlandi**.

5-jadval

| № | Tumanlar nomi | Kuzatuv quduqlarining umumiy soni | SHundan | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Joriy tamirlash | Kayta ta'mirlash. |
| 1. | Mingbuloq | 280 | 255 | 25 |
| 2. | Kosonsoy | 56 | 49 | 7 |
| 3. | Namangan | 164 | 154 | 10 |
| 4. | Norin | 144 | 131 | 13 |
| 5, | Pop | 180 | 161 | 19 |
| 6. | To'raqo'rg'on | 70 | 60 | 10 |
| 7. | Uychi | 161 | 151 | 10 |
| 8. | Uchqo'rg'on | 30 | 30 | - |
| 9. | CHortoq: | 67 | 57 | 10 |
| 10. | CHust | 80 | 65 | 15 |
| 11. | Yangiqo'rg'on | 60 | 56 | 4 |
| | Jami: | 1292 | 1169 | 123 |

**Manba: Namangan viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi maьlumotlari asosida tuzildi**.

2011 yil Namangan viloyati bo'yicha tik quduqlarining yillik ish rejimi ishlab chikildi va rejimga asosan 0. 86 urniga 0.24 ishlatildi.

Buning asosiy sababi 2011 yil sug'orish mavsumida texnik sabablarga ko'ra tik drenaj quduqlar sug'orish uchun suv tanqisligi natijasida tik quduqlar ta'sir maydonida yer osti suvi satxining ko'zda tutilgan me'yoridan ko'tarilib ketmaganligi viloyat tumanlarida tik drenaj quduqlarning ishlatish imkonini berdi.

Xisobot yilida tik drenaj quduqlarning umumiy soni 230 dona bo'lib, rejada 197 tasi ishlab 159.78 mln.$m^3$ suv chiqarib ish unumi 0,86 bo'lishi kerak edi, xaqiqatda 47 donasi ishlab 41.58 mli.$m^3$ suv chiqarib ish unumi 0,24 ga teng bo'ldi.

- **Mingbuloq** tumanida tik drenaj kudugi soni 58 dona bo'lib, shundan reja bo'yicha 50 dona ishlashi kerak edi, xaqiqatda 7 ta ishladi, ish unumi 0,86 ga teng bo'lishi kerak edi, xaqiqatda 0,12 ga teng bo'ldi. Yer osti sizot suvlari satxi reja bo'yicha 1,95 m xaqiqatda 1,78 m ni, bosimli suv satxi reja bo'yicha 2,15 m ni, xaqiqatda 1,99 m ni tashkil etdi. CHiqarilgan suvning o'rtacha sho'rlanishi: xlor 0,044 g/l ni. kurik qoldig'i – 1,26 g/l ni gashkil etadi.

- **Namangan** tumanida 61 ta tik zovur quduqlari mavjud bo'lib, 5.7 ga maydonning yer osti sizot suvini kochirishga xizmat qiladi. SHundan reja bo'yicha 52 dona ishlab, 48.96 mln.$m^3$ xajmdagi suvni chiqarib, ish unumi 0,83 ga, yer osti suvlarining satxi 2.98 m. Haqikatda 17 dona ishlab 13.44 mln.m xajmda suv chiqarib, ish unumi 0,27 ga, yer osti suvlarining satxi 1,56 metr buldi. CHiqarilgan suvning urtacha sho'rlanishi: xlor - 0,039 g/l ni, kurik koldik - 0,79 g/l ni tashkil etadi.

- **Norin** tumani Qoradaryoning xavzasida joylashgan bo'lib, yer osti suvlarining satxini pasaytirish uchun 69 ta tik zovur quduqlari xizmat qiladi.

Xisobot yili davomida reja bo'yicha 58 ta tik drenaj ishlab 47.29 mln.$m^3$ xajmdagi suvni chiqarib va ish unumi 0,85 ga teng bo'lishi kerak edi. Haqikatda 23 ta ishlab 18.91 mln.$m^3$ xajmda suvni chiqarib, ish unumi 0,34 ga teng buldi. Yer osti suvlarining satxi reja bo'yicha 1,75 m. bosimli suvlar satxi 2,10 m bulishi kerak edi. Haqikatda yer osti suvlarining satxi 1,56 m bosimli suvlar satxi 1,63 metrni tashkil etdi.

- **Pop** tumanida 1 dona tik drenaj kudugi mavjud bo'lib, joriy yilda texnik sabablarga ko'ra ishlamadi.

-**To'raqo'rg'on** tumanida 5 dona tik quduqlar mavjud bo'lib, haqikatda texnik sabablarga ko'ra tik drenaj quduq ishlamadi.

**-Uychi** tumanida xisobot yilida 3,3 ming gektar yerga xizmat qiluvchi 33 dona tik quduqlar mavjud bo'lib, reja bo'yicha 28 ta ishlab 27.12 mln.$m^3$ suv chiqarib ish unumi 0,85 ga, yer osti suvi satxi 2.05 m. bosimli suvi satxi 2.10 m bulishi kerak edi. Haqikatda 6 dona tik drenaj quduq ishlab, 4,73 mln.$m^3$ suvni chiqarib, ish unumi 0,18 ga teng buldi. Yer osti sizot suvlarining satxi 1.55 metr va bosimi suvi satxi 1,92 metrni tashkil etdi. SHo'rlanishi xlor-0,021 g/l, Kuruk koldik 0,46 g/l ni tashkil etdi.

**-Yangiqo'rg'on** tumanida esa 3 ta tik quduq bo'lib 0,3 ming gektar maydonga xizmat qiladi. Xisobot yilida 3 dona ishlab 1,89 mln.$m^3$ suv chiqarish kerak edi. Haqikatda esa 1dona ishlab 0,63 mln.$m^3$ suv chiqardi. Yer osti sizot suvi rejada 2,0 m bulish kerak edi. Haqikatda esa 1.73 metrni tashkil etdi

**2.3 Istiqbolda Namangan viloyati yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari**

2011 yil Namangan viloyati tumanlarida limit bo'yicha 2488,14 mln.$m^3$ urniga 2566,87 mln.$m^3$ suv sug'orish uchun ishlatildi. SHundan sug'orish manbaidan 2366,36 mln.$m^3$, sug'orish quduqlaridan 92,28 mln.$m^3$, ochik kollektorlardan 86,46 mln.$m^3$, tik zovur quduqlardan 21,77 mln.$m^3$ suv olindi.

Vnloyat bo'yicha Norin va Sirdaryodan suv olish va uni sug'orish maydonlariga yetkizib berish uchun bir qator yirik shox kanallar xo'jaliklarga suv bilan uzliksiz ta'minlab turibdi, ulardan:
SHFMK. KNMK. KFMK. Oxunboboev nomli kanal, Yangi arik va boshkalar kiradi.

SHimoliy Farg'ona magistral kanalidan Uychi, Namangan, To'rakurg'on, CHust va Pop tumanlari hamda kushni Tojigiston Respublikasi Xojant viloyati qisman sug'oriladi. Katta Namangan magistral kanalidan CHortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy va To'raqo'rg'on tumanlari sug'oriladi. Katta Farg'ona

SHox kanallarning boshlang'ich suv sarfi kuyidagicha:

| | |
|---|---|
| **KFMK** | **- 103 $m^Z$/sek.** |
| **SHFMK** | **- 103 $m^Z$/sek** |
| **Oxunbabaev** | **- 70 $m^Z$/sek.** |
| **KNMK.** | **- 61 $m^Z$/sek.** |
| **Yangi arik** | **- 15 $m^3$/sek** |

magistral kanalidan Uchqo'rg'on va Norin tumanlari sug'oriladi. Oxunbabaev nomli kanalidan Mingbuloq va Pop tuman yerlari sug'oriladi. Yangi arik kanalidan Namangan tumani yerlari sug'oriladi. Ushbu shox kanallar suvining sho'rlanish darajasi 0,23 – 0,84 g/l ni tashkil etadi.Xisobot yilida tumanlar sug'orish uchun kuyidagi miqdorda suv olib ishlatildi.

| | |
|---|---|
| **Mingbuloq** | **– 335,91 mln.$m^3$** |
| **Kosonsoy** | **– 169,7 mln.$m^3$** |
| **Namangan** | **– 213,03 mln.$m^3$** |
| **Norin** | **– 174,77 mln.$m^3$** |
| **Pop** | **– 600,73 mln.$m^3$** |
| **To'raqo'rg'on** | **– 205,29 mln.$m^3$** |
| **Uychi** | **– 214,48 mln.$m^3$** |
| **Uchqo'rg'on** | **– 228,498 mln.$m^3$** |

| | | |
|---|---|---|
| | **CHortoq** | **– 137,80 mln.m$^3$** |
| **0** | **CHust** | **– 181,72 mln.m$^3$** |
| **1** | **Yangiqo’ rg’on** | **– 104,943 mln.m$^3$** |

Sug’orishga olingan suvlar miqdori yig’indisi o’tgan yilga nisbatan kam olingan ya’ni o’tgan yili 2725,05 mln.m$^3$ bo’lsa, bu yili 2566,87 mln.m$^3$ suv olindi. O’tgan yilga nisbatan 158,18 mln. m$^3$ suv kam olindi.

Viloyat gidrogeologiya meliorativ ekspeditsiyasining asosiy vazifasi bo’lgan sug’oriladigan ekin maydonlarining tuproq sho’rlanganligini aniqlash va sho’r yuvishni o’z vaqtida sifatli o’tkazish uchun barcha fermer xo’jaliklariga tavsiyanomalar berish, sho’r yuvishni nazorat qilish va meliorativ xolati yomon yerlarni aniqlash ishlarini bajarishda asosiy jarayonni kimeviy laboratoriya bajaradi. CHunki viloyat bo’yicha sug’oriladigan maydonlarda joylashgan kuzatuv va tik drenaj quduqlaridan, Oqin va kollektor suvlaridan namunalar olib kelinib taxlil qilinadi hamda ekin maydonlardagi doimiy belgilangan nuqtalardan, konturlardan tuproq namunalarini keltirib taxlil qilib beriladi. Taxlil natijalariga qarab yerlarni meliorativ xolati aniqlanadi.

2011 yil davomida kimyoviy laboratoriyada 36429 dona taxlil qilindi SHundan 1008 donasi Oqin suvidan, 4644 dona zakan suvidan, 8334 dona kuzatuv quduqlaridan, 591 dona tik quduqlardan va 21273 dona tuproq tuzlar eritmasidan hamda 579 dona boshka taxlillardir.

Qilingan taxlil natijalarini ikki nusxada yozilib bir nusxasi tumanlarga berildi, bir nusxasi ko’p yillik ma’lumotlarga qo’shib kuyiladi. Oqin va kollektor suvlarini taxlil natijalari bo’yicha tuz balansi tuziladi.Tuz balansida asosan viloyat bo’yicha Oqin suvlari bilan kirib kelayotgan tuz miqdori va zakan suvlari bo’yicha dalalardan chiqib ketayotgan tuz miqdori aniqlanadi. Ikkalasi solishtirilib xulosa chiqariladi.

**2011 yilda yer fondi va ulardan foydalanish bo’yicha sug’orish maydonlari haqida ma’lumot**

6-jadval

| | Tumanlar nomi | Rejada, gek. | Amalda, gek. |
|---|---|---|---|
| | **Mingbuloq** | **56304** | **37806** |
| | **Kosonsoy** | **50852** | **23593** |
| | **Namangan** | **40074** | **21459** |
| | **Norin** | **20662** | **15941** |
| | **Pop** | **280007** | **39833** |
| | **To’raqo’rg’on** | **30918** | **19072** |
| | **Uychi** | **31259** | **21014** |
| | **Uchqo’rg’on** | **29974** | **24197** |
| | **CHortoq** | **36984** | **19451** |
| **0** | **CHust** | **91900** | **33329** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | **Yangiqo'rg'on** | **49179** | **26814** |
| | Viloyat bo'yicha | 718113 | 282509 |

**Manba: Namangan viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi maьlumotlari asosida tuzildi**.

Viloyat yer osti va bosim suvlari rejimi va bosim suvlarining hosil qiluvchi omillarining asosi markaziy Farg'onada Achchikko'l massivi yer ustki manbalari: daryolar, yog'ingarchiliklar va sug'orish xisoblanadi. Viloyat xududida uchta yirik arteriya oqib o'tadi, ya'ni Norin daryosi Uchqo'rg'on tumanining shimoliy va Uychi tumanining janubiy shark qismidan oqib o'tadi. Qoradaryo Norin tumanining janubiy qismidan o'tib, Andijon viloyatining Baliqchi tumanini ajratib turadi. Sirdaryo, Norin va Qoradaryoning kushilishidan hosil bo'lib viloyatning janubiy qismidan o'tadi. Sirdaryo, Norindaryo, Qoradaryo va ularni suv bilan ta'minlaydigan okimlari Podshootasoy, Kosonsoy, CHadaksoy, G'ovasoy. Namangan viloyati ekin maydonlarini sug'orishda bu daryolarning ahamiyati juda katta.(3-ilova).Er osti sizot suvi satxi kuyidagicha joylashgan: adir orti va adir oraliklaridagi maydonlarida tog oldi maydonlarida, togdan depressiya markaziga tushgan xolda yer yuzasiga nisbatan 10 metrgacha va undan ham past joylashgan.Kuyi qismlarida esa 0-2,0 m.gacha. Bu yerlarda yer osti suvi buloq usulida tabiiy o'zanlardan va sun'iy kollektorlarda chiqib kelish xollari ham kuzatilgan. Sug'orish maydonlarining tekis qismlarida yer osti suvlari Sirdaryo vodiylariga qarab bir tekisda kuzatiladi.

Sirdaryoning chap qirg'oq qismidagi sug'orish maydonlarida yer osti sizot suvlari satxi 0-2,0 m.gacha, ba'zi xollarda 3 m.gacha, sug'orilmaydigan qismlarida esa 2-4 m.gacha joylashgan.

Mingbuloq, Pop tumanlarining sug'oriladigan yer maydonlarni Sirdaryoning chap qirg'oq pastlik supalarida joylashgan bo'lib tuproq qatlami tabiiy sho'rdir, ya'ni daryo atrofi qum va qumliklardan iborat. Navoiy, Amir Temur. Gigant va Pop. G'urumsaroy Suvdan istimolchilari uyushmalari xududida yer osti sizot suvining satxi Sirdaryoning rejimiga bog'liq. Ya'ni daryo suvi ko'tarilsa, yer osti sizot suvi satxi ham ko'tariladi. Daryo suvi satxi pasayganda yer osti sizot suvi satxi pasayadi.

- Yer osti suvlarini satxini o'zgarishga ta'sir qiladigan omillardan:
- Sug'orishga meyordan ortikcha suv olish va yog'ingarchiliklarni ta'siri .
- Kollektorlarni dimlab sug'orishga suv olish.
- Kishlok xujaligi ekinlarini sug'orishda sug'orish muddatini chuzilib ketishi.
- Zax kochirish (Tik drenaj quduqlar , ichki kollektorlar) tozalanmaganligi.

Erlarni re'lefiga hamda irrigatsiya inshoatlarini suvini filьtiratsiyalariga bog'liqdir. Viloyat bo'yicha ekin maydonlarida yer osti suvlarini pasaytirish va meliorativ xolatini yaxshilash, ularni meyorida ushlab turish uchun joriy yild aloyixa asosida 901,77 km uzunlikda sistemali ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Qishloq xo'jalik ekinlari zararli bo'lgan tuzlar barcha viloyatlar singari, bizning viloyatimizda ham uchraydi. Xisobot yilida Gidrogeologiya meliorativ ekspeditsiyasi ishchi va texnik hodimlari tomonidan 282509 ga sug'oriladigan maydonlarda yerlarni sho'rlanishini aniqlash uchun yerlarni konturma-kontur sho'rlanishini oldingi yillardagi olingan namunalar va taxlillarga tayangan xolda joriy yilda 60887 gektar sug'oriladigan maydonlarda Kishlok va suv xo'jalik vazirligini 2007 yil 26 iyundagi №131 sonli buyrugida belgilangan, 2011 yil 19 iyulda №32-75 instruktsiyasida kursatilgan topshiriklarni bajarish uchun 5281 dona nuqtalardan 0-0,30, 0,30-0,70, 0,70-1,00 metrlar oraligida tuproq namunalari olinib ular aralashtirilib xar bir nuqta uchun 1 tadan namuna kmyoviy taxlil qilishga tayyorlandi 5281 dona namunada kattak koldik, xolor va sulьfat elementlarini topishga taxlillar utkazilib jami taxlillar soni 15843 donani tashkil kildi.

Taxlil natijalariga ko'ra viloyat bo'yicha 17609,6 gektar maydon oz sho'rlangan, 7057 gektar maydon o'rtacha sho'rlangan, 880 gektar maydon kuchli sho'rlanganligi aniqlandi.

Sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanganlik darajasi bo'yicha taqsimotga etibor berilsa, viloyatimizda asosiy sho'rlangan yerlar Mingbuloq va Pop tumanlarida joylashgan.

Kimyoviy laboratoriya tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki tuproqlarning sho'rlanishi asosan sulьfatli tipdir.

SHo'r yuvish bo'yicha asosan Mingbuloq, Pop va To'raqo'rg'on tumanlarini Sirdaryoning chap qirg'og'idaga xo'jalik yerlarida sho'r yuvishni talab etadi. SHo'r yuvilgan maydonlarning tuproq mexaniq tarkibi va zovurlar bilan ta'minlanganligini hisobga olgan holda quyidagi sho'r yuvish miqdori belgilangan. SHo'r yuvish zarur bo'lgan maydonlari asosan o'rta va yengil mexaniq tarkibli ekanligini hisobga olib quyidagi suv normasi belgilangan:

- oz sho'rlangan maydonlar – 2500 $m^3$/ga
- o'rtacha sho'rlangan maydonlar – 4500 $m^3$/ga
- kuchli sho'rlangan maydonlar – 6000 $m^3$/ga

Metodik ko'rsatmalarga binoan oz sho'rlangan maydonlar bir marta, o'rtacha sho'rlangan maydon ikki marta, kuchli sho'rlangan maydonlar uch marta yuvish tavsiya etiladi.

SHo'r yuvish ishlarini nazorat qilish maqsadida ekspeditsiya hodimlaridan maxsus guruhlar tuzilib, xo'jaliklarga borib bajarilayotgan ishlarni nazorat qilish tashkil etiladi. Bu tekshiruvlar mobaynida yerlarni tekkislash va pol olish ishlariga aloxida e'tibor beriladi. CHunki sho'r yuvishda yerni tekkisligi va cheklarni o'lchovi katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari maydonlarga berilgan suvi to'la singib tuproq tarkibidagi tuzlarni eritib o'zi bilan birga zakan – zovurlarga oqib chiqib ketishiga erishish maqsadida tashlamalarga yo'l qo'ymaslikka katta e'tibor qaratiladi.

SHo'r ikki va uch marta yuviladigan maydonlarda har bir sho'r yuvishdan so'ng tuproqdan namuna olinib taxlil qilinadi.

Asosan sho'r yuvilganda maydonlarda tuprog'ining sho'rlanganlik darajasi kamayib borishi kerak. Haqiqatdan sho'r yuvilgan maydonlarda sho'rlanish darajasi 1 aprel 2011 yil holatiga kamayganligi quyidagi jadvalda yaqqol ko'rish mumkin, o'rtacha sho'rlangan maydon qisman Mingbuloq va Pop tuman xo'jaliklarida aniqlandi. Bu holat sug'orish mavsumida va yog'inganchiliklar natijasida sug'orishga zakan - zovurlarni sho'r suvlaridan sug'orishga ishlatilmasa tuproqni sho'rlanish darajasi pasayadi.

7-jadval

| | **Tumanlar nomi** | **Muddati** | **Maydonlari ming.ga** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | **SHo'rlanmagan** | **Oz sho'r-n** | **O'rtacha sho'r-n** | **Kuchli sho'r-n** | **O'ta kuchli sho'r-n** |
| | **Mingbuloq** | **01.04.2011** | **31,92** | **5,64** | **0,22** | | |
| | | **01.10.2011** | **22,01** | **11,49** | **4,07** | **0,15** | |
| | **Pop** | **01.04.2011** | **36,51** | **2,67** | **0,73** | | |
| | | **01.10.2011** | **31,70** | **4,83** | **2,62** | **0,69** | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | To'raqo' rg'on | 01.04. 2011 | 19,07 | | | | |
| | | 01.10. 2011 | 18,80 | 0, 27 | | | |

**Manba: Namangan viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi maъlumotlari asosida tuzildi**.

Maъlumki viloyat yer maydonlari daryoning o'ng soxillarida joylashganligi uchun daryo yotkiziklaridan hosil bo'lgan soylar bilan kesilgan (CHadaksoy, Uyg'ursoy, G'ovasoy, Ko'ksereksoy, Kosonsoy, CHortoqsoy va boshkalar). Adirli joylari chuqurliklar va tekisliklar bilan birlashgan. Relьef inson faoliyati tufayli, ya'ni yangi yerlarni o'zlashtirish sababli o'zgargan.

Bulardan eng yiriklari G'ovasoy, Kosonsoy, Podshoota soylardir. Kosonsoy va Podshoota soy davlatlararo ahamiyatiga ega, ya'ni shu soylarning suvlari O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlarida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda ishlatiladi. shuningdek soylarning suvlari Namangan viloyatida foydalanib, sug'orish natijasida Sirdaryoga kuyiladi.Barcha yuuqorida keltirilgan soy va ichki manbalarda loykalanish kam, sho'rlanish esa 0-1,0 g/l. Barcha soy suvlaridan foydalanish rejasi xar yili suv xo'jaligi boshkarmasi tomonidan tuziladi.

SHunday qilib viloyat xududining, geomorfologiya-litologik tuzilishi, gidrogeologik sharoitda zax kochirish shaxobchalaridan foydalanish hamda tuproqni sho'rlanish darajasini taxlili yerlarni 3 xil toifaga ajratishga imkoniyat beradi.

1. Yaxshi xolat
2. Qoniqarli xolat
3. Qoniqarsiz xolat

Birinchi toifadagi maydonda yer osti sizot suvlari chuqur joylashgan. Bu joylarda meliorativ ishlar hosilni yaxshilashga qaratilgan, bunda organiq moddalarning me'yorida ishlatish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi toifadagi maydonlarga suv ta'minotini yaxshilash va irrigatsion sug'orish tarmoqlarida filьtratsiyani kamaytirish uchun kanal va yirik sug'orish tarmoqlarida betonlashtirish ishlarini olib borish kerak. E'tiborga olib, kollektorlarni samarali usullarini qo'llash mo'ljanlanmoqda (ochik kollektorlarni rekonstruktsiya qilish uni aniq usulga o'tkazish va tik meliorativ quduq bilan ta'minlash).

Uchinchi toifa-meliorativ xolati yomon, yer osti suvlarining oqimi ta'minlanmagan. Yil bo'yi yer osti suvlari muvozanitini saqlash hamda meliorativ ishlari bajarish lozim bo'lgan maydonlar. Meliorativ xolati yomon yerlar asosan Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Pop, CHust tumanlarida joylashgan. Bunday yerlarni umumiy maydoni 4270 gektarni tashkil etadi:

shundan 268 gektar maydonda yer osti sizot suvining satxi ko'tarilgan, 3719 gektar maydonda tuproq sho'rlangan, 283 gektar maydonda yer osti sizot suvining satxi ko'tarilgan va tuproq sho'rlangan aniqlandi.

Viloyat sug'oriladigan yer maydonlarining gidrogeologik meliorativ xolatini uzida aks ettirilgan xaritalarini 2011 yilning 1 aprel, 1 iyul, 1 oktyabr xolatlariga kuzatuv nuqtalaridagi ayni bir vaktda olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan, hamda viloyatning sug'oriladigan yer maydonlarida sizot suvlarining satxi chuqurligiga nisbatan, sug'oriladigan yer maydonlarining 2011 yilni o'simliklar rivojlanishi davrida taksimlanishi kuyidagicha.

| Davrlar | 0- 1,0m | 1,0- 1,5 m |
|---|---|---|
| 1 aprelь | 101 | 26648 |
| 1 iyulь | 99 | 19493 |
| 1 oktyabrь | 82 | 14265 |
| O'rtacha sug'orish mavsumi | 91 | 15590 |

ushbu jadvalda kurinib turibdiki, o'tgan yilga nisbatan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish davrida yer osti suvlari satxi barcha tumanlarda pasayishi kuzatildi.(4-ilova**)**

Namangan viloyati Kimyoviy taxlillari amalga oshirish uchun quyidagi jixozlar mavjud.

1. Laboratoriya stoli - 5 dona
2. VLTK – 500 tarozisi - 2 dona
3. VL tarozisi - 2 dona
4. Distiyator - 1 dona
5. SHisha va idishlar, kimyoviy reaktivlar.
6. Konduktometr “Ekspress”

Namangan viloyati hududida umumiy uzunligi 154 km bo’lgan Norin, Qoradaryo, Sirdaryo va uzunligi 2488 km bo’lgan 23 ta kanal va soylar, 16 ta yirik suv va sel yig’ish omborlari mavjud bo’lib, ularda yiliga 6,7 mlrd kubometr suv yig’iladi. SHundan 3,3 mlrd kubometr suv qishloq xo’jaligiga, 13,6 mln kubometri sanoat ishlab chiqarishiga, 18 mln kubometr suv ichimlik ehtiyoji uchun ishlatiladi.

Bugungii kunda viloyatdagi suv havzalariga qishloq xo’jalik, sanoat, transport va maishiy inshootlarning tozalanmagan chiqindi suvlari tushishi natijasida biosferaning muhim qimmatbaho qismi bo’lgan suv ifloslanmoqda. Ochiq suv havzalari sohil bo’yi mintaqalari ta’minlanmaganligi oqibatida esa SHimoliy Farg’ona, Yangiariq, Katta Namangan, Oxunboboev nomli kanallar, Namangansoy, CHortoqsoy, Kosonsoy, CHodaksoy, Begovotsoy, Olmossoy soylari suvlari aholi va ishlab chiqarish korxonalari tomonidan turmush va sanoat chiqindilari bilan ifloslantirilmoqda. Bu esa tabiatdagi barcha tirik organizmlarning o’sib ko’payishiga salbiy ta’sir qilmoqda.

Tabiatning ajralmas bir qismi bo’lgan yer xalqning eng asosiy va bebaho boyligi, chinakam umumxalq mulki hisoblanadi. Bu mamlakatimiz milliy boyligining eng muhim qismi, ishlab chiqarishni yuritishning asosiy negizidir. Ayniqsa, yer qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida muhim vosita rolini o’ynaydi.

1980-1995 yillar mobaynida viloyatda yerlardan foydalanishda katta o’zgarishlar sodir bo’ldi. Viloyat sug’oriladigan yerlarining o’sishi asosan 1980 yildan 1995 yilgacha bo’lgan davrga to’g’ri kelib, mana shu davr mobaynida sug’oriladigan yerlarning maydoni 277 ming 862 gektarga yoki 40 foizga yetdi.

1991 yildan 1995 yilgacha 7 ming 560 gektar yangi yerlar o’zlashtirildi. 15 ming gektardan ortiqroq yerlarni qayta ta’mirlandi, 13 ming gektar yerlarning meliorativ holati yaxshilandi.

Yer resurslarining foydalanish xarakteriga ularning sifati va meliorativ holati katta ta’sir ko’rsatadi. Sug’oriladigan yerlardan foydalanishga yer osgi suvlarining ko’tarilishi va sho’rlanishi salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bunga qarshi ko’rashda har yili juda katta mehnat, mablag’ va sho’r yuvish uchun qo’shimcha suvlarni talab qilinadi.

Meliorativ holati yomon yerlar asosan Mingbuloq, Namangan, To’raqo’rg’on, Pop, CHust tumanlarida joylashgan. Bunday yerlarning umumiy maydoni 10 ming gektardan oshadi.

